

TALABALARDA LOYIHALASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH ORQALI KASBIY MAHORATNI RIVOJLANTIRISH

Asrorova Saodat Abdullo qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

asrorovasaodat19@gmail.com

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining loyihalash ko'nikmasining shakllanganlik holati, zamonaviy texnik –texnologik vositalar orqali loyihalashning afzalliklari, loyihalash ko'nikmasini va shaxsiy qobiliyatni rivojlantirishning ahamiyati, jumladan o'quv jarayoni va amaliy jarayonlarda birgalikda takomillashtirish, bu borada o'qituvchilardan talab qilinadigan malaka hamda salohiyat to'g'risida ham yoritib berilgan.*

***Tayanch iboralar:** ta'lim, shaxsiy qobiliyat, innovatsion texnologiya, loyihalash, amaliyot, loyihalash jarayoni, oliy ta'lim, imkoniyatlar.*

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL SKILLS THROUGH FORMATION OF DESIGN SKILLS IN STUDENTS

Asrorova Saodat Abdullo qizi

Basic doctoral student of Bukhara State Pedagogical Institute

asrorovasaodat19@gmail.com

***Abstract.** In this article, the state of formation of design skills of students of higher education institutions, the advantages of designing through modern technical and technological tools, the importance of developing design skills and personal abilities, including joint improvement in the educational process and practical processes, from teachers in this regard the required qualification and capacity are also explained.*

***Key words:** education, personal skills, innovative technology, design, practice, design process, higher education, opportunities.*

Jahon ta'lim tizimida rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan “Ta'lim-2030 Inhxon deklaratsiyasi”da “Hozirgi davrda bilim kuch manbai, ta'lim esa uni imkoniyatlarini oshiradi. Bu ikki jihat rivojlanish formulasining ajralmas qismidir” deb e'tirof etilgan [1]. Bundan tashqari oliy ta'limni standartlashtirish kabi umumiy

tandensiyalarga e'tibor berilmoqda. Shu bilan birga, hozirda yangi avlod ta'lim resurslariga, birinchi navbatda, axborot resurslariga aloxida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim haqidagi zamonaviy tushuncha "didaktik vositalar" tushunchasidan ko'ra "ta'lim resurslari" tushunchasi ommalashib bormoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida ilg'or texnologiya va dasturiy "ta'lim resurslari" dan keng foydalanishga katta e'tibor qaratilayotganligini hisobga olsak, o'qitishning zamonaviy usullarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiyalashni taqozo etadi. Bu borada talabalarning shaxsiy qobiliyatlari, kasbiy kompetentligi, jumladan, axborot-texnologik kompetensiyasini rivojlantirishning samarali modellarini ishlab chiqish, interaktiv ta'lim muhitini tashkil etish va amalga oshirishning didaktik ta'minotini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy sharoitida ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini, jumladan, oliy ta'limni isloh qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu o'zgarishlarning asosiy maqsadi, ijodiy faoliyatga qodir bo'lgan shaxsni shakllantirishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish ta'limni insonparvarlashtirish g'oyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, oliy ta'limning maqsadli tamoyillaridan biri sifatida talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish muammosini dolzarblashtirishni o'z ichiga oladi. "Ijodkor shaxs", "ijodiy yondashuv", "ijodiy yutuqlar", "ijodiy o'ylov", "ijodkorlikning namoyon bo'lishi" ushbu tushunchalar jamiyatda yuqori malakali kadrlar tayyorlashda, zamonaviy kasbiy mahorat ko'rsatkichlarini aniqlashning asosiy mezonlaridan biri bo'lib, eng yaxshilar orasida eng yaxshisi hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda talabalarni shaxsiy ijodkorlik qobiliyatlarini loyihalash jarayonlari orqali shakllantirish va rivojlantirish bugungi kundagi texnika yo'nalishidagi o'qituvchilarining asosiy vazifalari sanaladi.

Shunday qilib, loyihalash atamasining asl mazmun mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, loyihalash bu mo'ljallangan obyektlar (apparat va asboblari, bino va inshootlar, yo'l va ko'priklar, mashina va jihozlar, samolyot va kosmik kemalar, radiopriyomnik va televizorlar, telefon va kompyuterlar, kiyim-bosh va poyabzallar, mebellar hamda boshqa turli-tuman mahsulotlarning yangi xillari va namunalari)ni qurish va yaratish uchun ularning loyihalarini tuzish va chizish jarayoni. Fan va texnikaning barcha sohalarida qo'llaniladi. U ilmiy tadqiqot ishlari, iqtisodiy va texnikaviy hisob-kitob, smeta tuzish, chizmachilik va chizmalarni ko'paytirish amallarini o'z ichiga oladi, chizmalar asosida ko'pincha obyekt (bino, mashina va boshqalar)ning maketi tayyorlanadi. Biror bir obyektни individual (yakka tartibda) va tipaviy (ommaviy tartibda) loyihalash mumkin. Loyihalashni maxsus tashkilotlar, firmalar yoki guruhlar amalga oshiradi. Bular sohalar bo'yicha yoki ixtisoslashtirilgan tarzda ish yuritadi. Biror obyektни loyihalashda standartlashtirilgan detallar, agregatlar, uzellar va me'yoriy hujjatlardan keng foydalaniladi.

Qobiliyat esa insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi. Qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko'nikma, malakadan farq qiladi. Qobiliyat insonga berilgan in'om sifatida qaraladi. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobiliyat aynanlashtiriladi.

Qobiliyat inson tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo'lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim. Barcha qobiliyat uchun tayanch xususiyat - kuzatuvchanlikda, ya'ni insonni fahmlash, obyektidan u yoki bu alomatlarni ko'ra bilish, ajrata olish ko'nikmasidir. Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan biri - narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir. Loyihalash jarayonida esa bu eng asosiy omil sifatida xizmat qiladi va qobiliyatning yanada rivojlanishida imkon yaratadi. Chunki har bir loyihalaydigan mutaxassis shaxsiy qobiliyatlarini ishga solidi va bajarayotgan loyihasini shu orqali takomillashtiradi.

Loyihalash ushbu bosqichlarda amalga oshiriladi: loyiha topshirig'i, loyiha yechimi va loyiha sinovi. Loyiha topshirig'ida bo'lajak obyektning qurishning shartsharoitlari va maqsadga muvofiqligi asoslanadi va uning tafsilotlari belgilanadi. Loyiha yechimida bo'lajak obyektning re'jasidan tortib toki tayyor holigacha bo'lgan ishlar belgilab olinadi. Loyiha sinovida tayyor loyiha maxsus tuzilgan dastur asosida tekshiriladi.

Shuni hisobga olgan holda, bugungi kunda texnika yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun loyihalash qobiliyati, loyihalash ko'nikmasi va loyihalash malakasi juda muhim xususiyat hisoblanadi. Sababi loyihalash jarayonini avtomatlashtirishga ayniqsa keng e'tibor berilmoqda. Bunda tashkiliy-texnikaviy vositalar, elektron-hisoblash mashinalari, kompyuterlar, avtomatika vositalaridan foydalaniladi. Bu vositalar majmui "inson va mashina" tizimini, ya'ni avtomatlashtirilgan loyihalash tizimini tashkil qiladi. Bu tizim insonni murakkab va sermehnat hisoblash, qiyin jadvallarni tuzish ishlaridan ozod qiladi, loyihalash jarayonini ancha tezlashtiradi. Shu sababli ham talabalarni ushbu yo'nalishga puxta tayyorlash va qobiliyat, malakalarini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Bunda oliy ta'lim muassasasining moddiy texnik bazasi yetarlicha zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgani va jahon ta'lablariga javob beradigan, izlanuvchan zamonaviy bilimlarga ega, IT texnologiyalaridan foydalana va o'rgata oladigan va albatta ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlikda ish olib boradigan

o'qituvchilarning mavjudligi muhim omil sanaladi. Negaki bugungi kunda innovatsion texnologiyalar, soniya sayin rivojlanib ketayapti, va har qadamda uchrayapti. Istalgan sohada buni guvohi bo'lishimiz mumkin. Ayniqsa, texnika sohasi bu sohalarning eng oldi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, loyihaga asoslangan o'qitishda loyihani bajarishga kirishish, aniq muammoni belgilash, yo'naltirishni tushunishga doir butun jarayon (o'quv maqsadi, rejasi, mazmuni, shakllari, vositalari, dars jadvali, konsultativ faoliyat, monitoring, baholash) qamrab olinishini taqozo etishi uni "texnologiya" sarhadlaridan chiqish hamda "ta'lim amaliyoti turi" nuqtai nazaridan qarash mumkinligini bildiradi, va buni takomillashtirish uchun imkon yaratadi. Shuni hisobga olgan holda, talabalarning loyihlash ko'nikmasini oshirish bugungi kunda texnologik ta'lim yo'nalishidagi asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Клековкин Г.А. Преемственность в обучении. в поисках теоретических оснований // – Самара, 2000. – С. 328.
2. Olimov, K. T., & Sh, T. Z. (2019). Integration of Special Subjects, Opportunities and Solutions. Eastern European Scientific Journal, (2), 67-70.
3. Тухтаева, З. Ш. (2011). Межпредметные связи и преемственность в профессиональном образовании. Профессиональное образование. Столица, (9), 43-44.
4. Sh, T. Z., & Kh, S. K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. International journal of innovations in engineering research and technology. IJIERT, 7(4), 258-261.
5. Sharifovna, T. Z., & Bakhriniso, T. (2020). Modernization of higher education by solving integration problems. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(12 Part II), 44-49.
6. Тухтаева, З. Ш. (2012). Методика межпредметной преемственности в профессиональном образовании.
7. Тухтаева, З. Ш. (2016). Касб-хунар таълимида фанлараро узвийликни таъминлаш методикаси.